O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [15]
ISSN 2181-7324(Print)

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK: 314.15:316.7:37

Fatxulla ABDUVALIYEV,
PhD, Toshkent davlat texnika universiteti. Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: f.abduvaliyev@jmail.com,

Toshkent transport universiteti professori, s.f.d. F.Parmanov taqrizi asosida

IMPACT OF EDUCATIONAL MIGRATION PROCESSES ON ETHNO-CULTURAL CHANGES

Annotation

In this article, the author puts forward scientific terms such as "intellectual migration", "educational migration", the departure of "intellectuals" from the country, the explanations of educational migration in the system of socio-economic sciences, and he makes a sociological comparative analysis of the social characteristics of the mobile, i.e. constantly moving, layers of the population. Stages of historical formation of education or intellectual migration, scientific basis of periodic (circulation) importance, criteria of its emergence, social reasons are scientifically classified. Information of the society, globalization of the world has become the object of research of scientists and researchers, along with the subject of migration, which has become a special topic in the next twenty ears. As the scale of the problem became larger and more popular, the debates of the general scientific community about migration became the main topic in scientific discussions. The views of "migration of personnel with high professional skills", "intellectual flow", "outflow of intellectual potential", "outmigration of talented and intelligent people" put forward by the author by the experts of modern classical sociology are systematically analyzed from the sociologist's point of view.

Key words: migration, intellectual migration, educational migration, innovation, globalization, integration, multiculturalism, identity, mentality, stereotype.

ТРАНСФОРМАЦИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотатция

В данной статье автор разъясняет концепцию образовательной миграции в системе социально-экономических наук, выдвигая такие научные термины, как «интеллектуальная миграция», «образовательная миграция», «эмиграция интеллектуалов» из страны, и проводит социологический сравнительный анализ социальных характеристик мобильных, то есть постоянно перемещающихся, слоев населения. Придается значение этапам исторического формирования образовательной или интеллектуальной миграции, научной основой которой является периодичность (циркуляция), и проводится научная классификация критериев ее возникновения и социальных причин. Информатизация общества, глобализация мира, с темой migratsii, ставшей отдельной темой за последние двадцать лет, стали объектом изучения ряда научных исследователей. По мере того как масштаб проблемы увеличивался и расширялся, полемические дебаты широкого научного сообщества по вопросам миграции стали главной темой научных дискуссий. Выдвинутые взгляды на «миграцию высококвалифицированных кадров», «интеллектуальный поток», «отток интеллектуального потенциала», «выезд талантливых и умных людей» Авторы, представляющие собой работы экспертов современной классической социологии, систематически анализируются с точки зрения социолога.

Ключевые слова: миграция, интеллектуальная миграция, образовательная миграция, инновации, глобализация, интеграция, мультикультурализм, идентичность, менталитет, стереотип.

TA‘LIMNING GLOBALLASHUV DAVRIDA MILLIY QADRIYATLARGA TRANSFORMATSIYASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada muallif ta‘lim migratsiyasining ijtimoiy-iqtisodiy fanlar tizimidagi izohlari “intellektual migratsiya”, “ta‘lim migratsiyasi”, “aql egalari”ning mamlakatdan chiqib ketishi kabi ilmiy atamalarni ilgari surib, unda aholining mobil, ya‘ni doimiy harakatdagi qatlamlarining ijtimoiy xususiyatlarini sotsiologik jihatdan qiyosiy tahlil etadi. Ta‘lim yoki intellektual migratsiyaning tarixiy shakllanish bosqichlari, ilmiy asosi davriy (sirkulyatsiya) ahamiyat kasb etib, uning vujudga kelish mezonlari, ijtimoiy sabablari ilmiy tasniflangan. Jamiyatning axborotlashuvi, dunyoning globallashib borishi keyingi yigirma yil ichida alohida mavzuga aylangan migratsiya mavzusi bilan qator ilmiy izlanuvchi va tadqiqotchilarning tadqiqot ob‘ektiga aylandi. Muammoning ko‘lami yiriklashib, ommaviylashib borgani sari keng ilmiy jamoatchilikning migratsiyaga oid munozarali baxs-munozaralar ilmiy munozaralarda asosiy mavzuga aylandi. Muallif tomonidan zamonaviy mumtoz sotsiologiyaning ekspertlari tomonidan ilgari surilayotgan “yuqori kasbiy mahoratga ega bo‘lgan kadrlar migratsiyasi”, “intellektual oqim”, “intellektual salohiyatning chiqib ketishi”, “iste‘dodli va aqlli kishilarning horijga chiqib ketishi” kabi qarashlari sotsiolog nuqtai nazaridan tizimli tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: migratsiya, intellektual migratsiya, ta‘lim migratsiyasi, innovatsiya, globallashuv, integratsiya, multikulturalizm, identiklik, mentalitet, stereotip.

Kirish. “Globallashuv” atamasi, bugungi zamonaviy jamiyatda eng ko‘p ishlatiladigan, mazmun-mohiyati jihatidan esa bilim, ko‘nikma, tajriba va fikrlash imkoniga ega bo‘lgan kishilarning deyarli barchasiga tanish so‘zga aylandi. Unda er yuzidagi mavjud jamiyatlarning ishtiroki esa, istasa-istamasa o‘z-o‘zidan majburiy bo‘lib qoldi. Yer yuzi bir qarashda ulkan bir sayyorani anglatsa, ikkinchi tomondan u shu qadar kichik bo‘lib bormoqdaki, uning istalgan chekkasi bilan bog‘lanish

uchun sanoqli daqiqa va soniyalar kifoya qilmoqda. Internet va boshqa virtual aloqalar esa globallashuv jarayoniga har qancha qarshi bo‘lishga intilayotgan kishilarni ham chorasiz ahvolga solib qo‘yadi. Ammo bizning maqsadimiz globallashuvni inkor etish, yoki tashviqot-targ‘ibot qilishga qaratilmasdan, balki uning holatini ilmiy tahlil qilishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ta’lim sohasiga oid adabiyotlarning nazariy-metodologik asoslari globallashuv jarayonlariga bog‘lab tahlil etilar ekan, unda milliy qadriyatlarning transformatsiyalashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Globallashgan dunyoda ijtimoiy voqealiklar turli xil tahdidlar bilan bog‘liq hodisalarni izchil yoritish bilan mustahkamlanadi. Shu asosda, mamlakatda ilm-fanni yanada rivojlantirish, yuqori kasbiy malakaga ega bo‘lgan mutaxassislarni etkazish, universitetlar va ilmiy tadqiqotlar institutlari huquq manfaatlarini himoya qilish tizimi bilan mustahkamlandi. Bu borada olib borilayotgan islohotlar izchillik bilan davom etirilmoqda. Migratsiyaning sotsial voqe’liklari va u bilan bog‘liq tasniflarga nisbatan an’anaviy qarash va baholash prognozlari o‘rnini yangicha ilmiy yondashuvlar bilan xulosa chiqaradigan dunyoqarashning paydo bo‘lishi bilan izohlanadi. Bunday yangicha ilmiy yondashuv zarurati bugungi ijtimoiy taraqqiyot bosqichida mamlakatning demokratik siyosati va jamiyat a’zolarining manfaatlarini hisobga olgan holda rivojlanib, jadal sur’atlarda takomillashib bormoqda. Chunki migratsiya jarayonlarining har qanday shaklini chuqur anglash, uning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jihatlardagi barqarorlikni ta’minlashga ta’sir etuvchi omillardan biri sanaladi.

Tadqiqot metodologiyasi. 2008-2018-yillardagi migrantlar akkulturatsiya jarayoni, ularni qabul qiluvchi jamiyatlar nuqtai nazaridan tahlil qilingan statistik-sotsiologik ko‘rsatkichlar indikatorlari dinamikasi o‘rganilib, ular migrantlar ehtiyojlari, maqsadlari, manfaatlari xilma-xilligi, ularning moddiy va ma’naviy ehtiyojlari dinamik o‘sib borish qonuniga mos tadrijiy o‘zgarib turishini ko‘rsatdi [1;]. Bu jarayonda migrantlarning milliy o‘zligini (identikligini), konfessional mansubligini, sotsial maqomini anglashi ularning ijtimoiylashish darajasi va xarakteriga mos bo‘ladi. Bu ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy munosabatlar ta’sirida shakllangan ijtimoiylashgan migrant sotsial qiyofasi, ongi va hayot tarzining ma’naviy-axloqiy, sotsiologik masalalarini umumlashtirib, mavzu doirasida tadqiq qilishni kun tartibiga qo‘ymoqda.

Zamonaviy dunyoning manzarasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, intellektual migratsiyaning intensiv rivojlanib borayotganligini kuzatib borish mumkin. Uning rivojlanishi “ichki”, “tashqi”, “mayoqsimon” shaklda oddiylikdan murakkablikka qarab oshib bormoqda. Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, 2030-yilga borib er yuzi aholisining 4 mlrd.dan ziyodi rivojlangan va taraqqiy etgan shaharlarda istiqomat qilishi aytiladi [2; 8]. Ushbu statistik ma’lumotlar natijalari dunyo aholisining qariyb 50% ni aks ettiradi. Ammo, masalaning ikkinchi jihati mavjud bo‘lib, aholining qolgan ikkinchi qismi o‘rtasida yuqori darajadagi ta’lim va turmush sifatining o‘zgarib borish dinamikasi holati qay darajada kechishini tadqiq etish yangi ilmiy muammolarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi.

Tahlil va natijalar. Xalqaro Nobel mukofoti sohibi J.Stiglis o‘zining “Globallashuv: havotirli yo‘nalishlar” kitobida shunday yozadi: “U yoki bu xalqning globallashuv jarayonidan qanday ne’matlarni tatib ko‘rishi asosan milliy hukumatning faoliyatiga bog‘liq bo‘ladi. Ko‘pchilik bozor iqtisodiyoti jarayonida davlatning rolini oshirishni etakchi g‘oya deb hisoblaydi. Ular bir narsani hisobga olishni istamaydilar, “bozor munosabatlari qonuniyatining o‘zi barcha ijtimoiy muammolar echimini o‘z joyiga qo‘yadi. Davlatning zimmasida esa tengsizlik, ishsizlik, atrof-muhitning ifloslanishi kabi muammolarni hal etish asosiy bo‘lib qolishi kerak”” [3]. Bu masalaning bir tomoni.

Avvalgi vaqtlarda mavjud davlatlarning chegaralari hukumatlarning iqtisodiy-siyosiy holatlarga yo‘naltirilgan huquqiy tartib va qoidalar asosida bir-birlariga uyg‘unlashtirilgan bo‘linsa, hozirgi vaqtda uning taqdiri borgan sari jahon iqtisodiy jarayonlariga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. “Sotsiologik tadqiqotlar” jurnalining 2024-yil 3-sonidagi ma’lumotlarga e’tibor beradigan bo‘lsak “jahonning mazkur rivojlangan davlatlaridagi trans milliy (TMK) va multmilliy korporatsiyalar (MMK) butun xalqaro savdoning 70 % va ishlab chiqarishning 30% ni boshqarayotgani” [4; 5] ni o‘zi turli tengsizliklarni keltirib chiqarishga sabab bo‘layotganligini misol sifatida keltirish imkonini beradi. Shu bilan birga transmilliy korporatsiyalar davlat bilan bir qatorda xalqaro huquqning mustaqil sub’ekti bo‘lishga intilishni namoyon qilmoqdalar. Eronlik adib Ali Ahmad buni o‘zining “G‘arbparastlik” kitobida “ishlab chiqaruvchi” va “iste’molchi” kategoriyalari asosida tahlil etadi: “Dunyoda ikki qutb bir-biriga qarshi turibdi – birinchisi mashinalarni yaratadi, ishlab chiqaradi va sotadi; ikkinchisi foydalanadi, iste’mol qiladi, nari borsa uning hujjatlarini o‘rganadi. Shu sababli birinchisi “yaratuvchi”, ikkinchisi esa “iste’molchi”. Bugungi kunda G‘arb ishlab chiqaruvchi, Sharq iste’molchi ekan, har qancha harakatlar bo‘lmasin milliy qadriyatlar sofligini saqlab qolish qiyin. Hozirgacha bunga faqat Yaponiya erishdi xolos” [5].

Dunyoning globallashuvi bugungi kunda yagona bir hudud yoki qutb doirasida kechmasligi oydin bo‘lib bormoqda. Buning sabablari esa nafaqat iqtisodiy notenglik, geosiyosiy holat asosida bo‘lmay, balki madaniyatlarning turfa xilligi, bir necha etnos va dinlarning mavjudligi, kishilar mentaliteti va psixologiyasining bir-biriga o‘xshamasligi bilan ifodalanmoqda. Amerikalik tadqiqotchi S.Xantington fikricha, “globallashuvning dunyoni turli mintaqalarida vujudga kelishi va shakllanishi – bu G‘arbning, yanada aniqroq aytiladigan bo‘linsa, xristian sivilizatsiyasining tarqatilish (ekspansiya) izlari bo‘lib, aytish mumkinki uning qadriyat va institutlari o‘zga madaniyat an’ana va tizimlari mavjud bo‘lgan sharoitda tenglik asosida faoliyat yuritishi haqiqatdan yiroqdir” [6].

Rossiyalik mutaxassis Yu.Yakoves “sivilizatsiyalar o‘rtasidagi to‘qnashuv xavfining o‘sib borishi insoniyatning o‘zini saqlab qolish yo‘lini topa olmay, faqatgina sivilizatsiyalar va davlatlarning hamkorlik va sheriklik qilish uchun turli xil davra suhbatlarining strategiya va mexanizmini ishlab chiqish bilan chegaralanmoqda. Bu oxir oqibatda odamzodning “o‘z joniga qasd qilishi” bilan barobardir” [7]. Ammo globallashuv nazariyotchilaridan biri hisoblanadigan F.Fukuyama esa quyidagi fikrlarni aytadi: «... men ishonamanki kishilik jamiyatining tarixiy rivojlanib borish munosabtlari demokratik boshqaruv shakllariga yo‘naltiriladi, lekin men ushbu jarayonni tezlashtirish kerak deb hisoblamayman, ayniqsa harbiy kuch ishlatish va boshqa davlatlarning ichki ishiga aralashish orqali” [8]. Ammo F.Fukuyama o‘z asarlarida butun dunyoning ertami yoki kech baribir G‘arb boshqaruv modelini tarixiy jarayon sifatida ixtiyoriy ravishda qabul qilishlariga ishonadi.

Yaqin munosabatlar asosida kechayotgan globallashuv va integratsiya jarayonlarini kelib chiqishiga turtki berayotgan ayrim fikr va nazariyalar negizida butun dunyo ijtimoiy-siyosiy holatinini bir tomondan turib boshqarishga bo‘layotgan urinishlardir. Masalan, taniqli siyosatshunos Z.Bzejinskiy fikriga ko‘ra globallashuv va milliy davlatlar o‘rtasidagi qiziqishlar faqatgina AQShning ko‘magida amalga oshirilishi kerak. Z.Bzejinskiy yozadi: “Amerikaning qudratli davlat ekanligi u haqmi yoki noxaq bo‘lishidan qat’iy nazar, unga har qanday mavjud qarama-qarshiliklarni hal qilish huquqini beradi” [9]. Bu kabi g‘oyalarning ilgari surilishini o‘zi milliy davlatlar o‘rtasida qaysidir bir darajada tashvishlar

uyg‘otishi tabiiy. Chunki dunyo bir qutbli bo‘lishi kerakmi yoki ko‘p qutbli. Agar u bir qutbli bo‘ladigan bo‘lsa, milliy madaniyatlarning holati qay darajada kechadi?

Globallashuv nazariyasi asoschilari bunga ham javob topadilar. Xususan tadqiqotchi M.Kastels bu xususda quyidagi fikrlarni ilgari suradi: “Globallashuvda davlatlar yo‘q bo‘lib ketmaydi. Axborotlar asrida ular faqat o‘z maqomini o‘zgartirishi mumkin xolos” [10]. Shuningdek, M.Kastels global dunyoni ma’lum bir model asosida shakllantirish mumkin emasligini asoslashga harakat qiladi. Bu xususda u shunday yozadi: “... men postindustrializm nazariyasi namoyondalarining dunyo AQSh va G‘arbiy Yevropaga o‘xshagan bo‘lishi kerak deb aytgan etnotsentristik qarashlariga tanqidiy ko‘z bilan qarayman” [11]. Ta’lim sohasida vujudga kelgan intellektual migratsiya shakllaridan yana biri – bu aloxida fenomen bo‘lgan va o‘ziga xos ahamiyat kasb etuvchi virtual migratsiyadir.

XX asrning 60-yillarida bir guruh jamiyatshunoslar jamiyatda texnotuzilmaviy jarayon boshlandi, – degan g‘oyalarni ilgari suradilar. Texnotuzilmaviylik vakillari – bular zamonaviy sanoat va rejalashtirishda o‘ta katta ehtiyoj bilan qabul qilinadigan turli xil texnik bilim, tajriba va qobiliyatga ega bo‘lgan kishilar uyushmasidir. Sotsiolog tadqiqotchi J.K.Gelbreytning fikriga ko‘ra, “deyarli qarorlar qabul qilishdagi barcha jarayonlar alohida imtiyozlarga ega bo‘lgan texnotuzilmaviylik hisobiga amalga oshiriladigan bo‘lindi” [12]. U fikrini davom ettirib yozadi, “davlat texnotuzilmaviylikning ijroiya qo‘mitasi bo‘lib qoldi xolos” [13]. Biroq bu degani davlat o‘z mavqesini yo‘qotib bormoqda degani emas. Faqat endi davlat o‘z boshqaruv vazifasini tubdan o‘zgartirishi kerak bo‘lib qoldi.

Futurolog-sotsiolog D.Bell o‘zining “Yaqinlashib kelayotgan postindustrial jamiyat” kitobida yozadi: “postindustrial jamiyatda hokimiyat endi xususiy mulkga emas, balki bilimga tayanadi. Yetakchi sinf sifatida sahnaga olimlar, injenerlar va texnika mutahassislari chiqadilar; etakchi o‘rinlarni intellektual tashkilotlar (universitetlar, tadqiqot institutlari, sanoat laboratoriyalari) egallaydilar. Iqtisodiyot birinchi navbatda moddiy mahsulotlarga emas, xizmat ko‘rsatishga asoslanadi. Siyosiy qarorlar faqat ratsional-texnik fikrlarga asoslanadi, bu esa “mafkuraning tamom bo‘lganligini” bildiradi. Kishilar ijtimoiy qadriyatlar munosabatlarida umumiy konsensusga (munozarali savol va nizolarni kelishuv asosida hal etish) erishadilar, mutahassislar ratsional uslublarga tayanib, tizimli tahlil va qarorlar qilishga moslashadilar. Qisqacha qilib aytganda bizni professional boshqaruvchi va texnokratlar davri kutmoqda” [14].

Bugun hech kimga sir emas, rivojlangan mamlakatlarda postindustrial jamiyat davri hukm surmoqda. Shu sababli ham butun dunyo bo‘ylab iste’dodli va intellektual salohiyatga ega bo‘lgan tadqiqotchi va mutahassilarni bu jamiyatlar tobora o‘zlariga jalb qilib bormoqdalar. Bu esa ularning ilmiy va ijodiy faolligi asosida milliy qadriyatlarning tranyaformatsiyalashuvini yanada tezlashtirmoqda. O‘zi aslida axborotlar asrining etakchi ishtirokchilari ham aslida intellektual qatlam kishilaridir.

Xulosa va takliflar. Fikr va mulohazalarimizni yakunlar ekanmiz, O‘zbekiston globallashuv jarayonida qanday qatnashishi kerak degan savolga o‘z mulohazalarimizni berib o‘tishni lozim deb topdik. Bunda:

Yosh avlodni o‘zbek tilini sof bilgan holda, ingliz tilini professional mukammal darajada bilishiga erishish. Aynan shundagina milliy qadriyatlarni nafaqat saqlash, balki uni dunyo miqyosida qaysidir darajada eksport qilish imkoniyatiga ega bo‘linadi. Agar e’tibor beradigan bo‘lsak, bugun O‘zbekiston telekanallarida berilayotgan koreys, yapon va hatto xitoy film hamda seriallarining aksariyati ingliz tilidan tarjima qilinmoqda;

Globallashuvda asosiy etakchi va himoyachi kuch intellektual salohiyat ekanligi zamonaviy fanda o‘z isbotini topdi. Shu sababli jamiyatda jismoniy va tashkilotchilikni targ‘ib qilayotgan mehnatkashlik qatoriga ijodiy-intellektual mehnatni sevish, qadrlash hamda rag‘batlantirishga qaratilgan g‘oyalarni ilgari surish;

Milliy ta’lim tizimini bugungi kunda ko‘p kuzatilayotgan “harflar qaerga ketdi” deb nomlanuvchi “qo‘rqitish va bosim”ga asoslangan byurokratiyadan butunlay xalos etish va ilmiy tafakkurni targ‘ib etuvchi sokin ideal byurokratiya orqali tartibga solish.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Статистика қўмитасининг ФЖШМҚМИ 2013 й., 2015 й. ва 2019 йилларда ўтказилган социологик тадқиқотлар натижалари. (2008-2018 йиллар маълумотлари.);
2. Лебедева М.М. Интеллектуальная миграция в современном мире // Миграционные процесцы в конце XX – начале XXИ в.в. Основные причины особенности современной интеллектуалной миграции. – М.: МГИМО Университет, 2014. – С. 8;
3. Стиглиц Дж. Глобализация: тревожные тенденции. М.: 2004. – С. 11;
4. Социологические исследование // Журнал, № 3, 2014. – С. 5;
5. Кляшторина В.Б. Иран 60-80-х годов. От культурного плюрализма к исламизации духовных ценностей. М.: «Наука», 1990. – С. 98;
6. Свободная мысль - XXИ. // Журнал “Экономика”, № 11, 2024. – С. 64-65;
7. Яковец Ю.В. Глобализация и взаимодействие цивилизаций. М.: «Экономика», 2003. – С. 3-4;
8. Свободная мысл - XXИ. // Журнал “Экономика”, № 11, 2024. – С. 64;
9. Бзежинский З. Выбор: мировое господство и глобальное лидерство. М.: «Международное отношение», 2004. – С 175-176:
10. Кастельс М. Информационная эпоха. М.: 2000. – С. 511;
11. Кастельс М. Информационная эпоха. М.: 2000. – С. 22;
12. Гельбрейт Дж.К. Новое индустриальное общество. М.: 1969. – С. 124;
13. Гельбрейт Дж.К. Экономические теории и цели общества. - М.: 1976. – С. 223;